



O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi

www.sammuslim.uz

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari

Chop etish



«**Batahqiq, sizlarga o'zingizdan bo'lgan, mashaqqat chekkaningiz uning uchun og'ir bo'lgan, siz (ning saodatga yetishishingiz)ga tashna, mo'minlarga mushfiq, mehribon Rasul keldi** ». (Tavba surasi, 128-oyat).

Olamlarga rahmat bo'lgan, oxir zamon Payg'ambarining insonlar orasidan chiqishi butun insoniyat uchun katta faxrdir. Muhammad alayxissalom insoniyatning mashaqqat chekishi, qiyinchilikda qolishni aslo istamaydigan, og'ir ishlarnida yengil qilgan, yaxshiliklar bashoratini olib kelgan Payg'ambardir. Insoniyatning saodatga yetishiga nihoyatda tashna bo'lgan Payg'ambardir. Dunyo tarixida Muhammad alayhissalomchalik insoniyatga karamli va mehribon kishi bo'lmasan.

Muhammad (s.a.v.) Rabi'u'l avval oyining o'n ikkinchi sanasida, milodiy 571-yil aprel oyida dushanba kuni dunyoga keldilar. Otalari Quraysh aslzodalaridan, xulqi go'zal, ko'r kam va omonatdor bo'lgan Abdulloh ibn Abdulmuttalibdur. Onalari Omina binti Vahbdur.

| | |
|---|---------------------------|
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning ismlari | Muhammad Ibn Abdulloh |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning otalarining ismlari | Abdulloh Ibn Abdulmutalib |

| | |
|--|--|
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning onalarining ismlari | Omina binti Vahb |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning tug'ilgan yillari | Milodiy 571-yil voqeasidan 50-55 kun oldin 10-12-ra'biul avval oyi dushanba tongi Bomdod vaqtı Makka shahrida Amakilari Abu Tolibning uyida dunyoga keldilar |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning millatları, jrug'lari, Qabilalari | Arab, Hoshimiyy, Quraysh |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning Otalarining vafotlari | Fil voqeasidan oldin onalari qornida homila ekanlik Otalari 25 yoshda vafot etganlar |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning Onalarining vafotlari | Onalari Payg'ambarimiz (s.a.v) 6 yoshda Otalarini va qarindoshlari ziyorati uchun Madinaga borganlabetob bo'lib Abvo qishlog'ida vafot etganlar |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning ko'krak yorishlari (Shaqqu as-sodr) | 4 yoshlarida milodiy 575-yil Banu Sa'd qabilasida |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning bobolari Abdulmutallibning vafoti | Payg'ambarimiz (s.a.v) 8 yosh vaqtiali bobolari Abdulmutallib vafot qildi. Amakilari Abu Tolib o'z qaramog'iga olgan |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning dunyoga celishlarida Doyalari | Shifo binti Avf. Abdurahmon ibn Avf (r.a)ning onalari |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning enagalari | Shaymo binti Horis, Ummu Ayman Baraka binti Sa onalaridan so'ng to balog'atga yetguncha enagalik qilganlar |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ni emizgan onalari | Omina binti Vahb (o'z onalari) 7 kun, Suvayba Asla bir necha kun, Hamza (r.a)ning emizgan Banu Sa'a ayol bir marta, Halimayi Sa'diyya (r.a) 2 yil |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning payg'ambarliklari | Milodiy 610-yil avgust, Makkai Mukarrama, Nur toq g'orida |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ga ilk vahy nozil olishi | Birinchi vahy "Alaq" surasining 1-5 oyati Bir oydan ikkinchi vahy "Muddassir" surasining 1-7 oyati nozil bo'lgan |

| | |
|---|--|
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning Kitoblari, Dirlari, Sharia'tlari va yo'llari | Quro'ni Karim, Islom, Islom sharia'ti yoki Muhamm Sirotul Mustaqim |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning payg'ambarlik davrlari | Makka davri 12.5 yil Madina davri 10 yil davom etq |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning hijratlari | 53 yoshlarida milodiy 622-yil 12-sentabr tongida Makkadan Madinaga hijrat qilganlar |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning yoshlik va o'spirinliklarida qilgan ishlari | Yoshliklarida qo'y boqib cho'ponlik qilganlar. O'spirinliklaridan to payg'ambar bo'lguncha tijorat shug'ullanganlar. Payg'ambar bo'lgach risolatni yetkazganlar. |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning vafotlari | Milodiy 632-yil 6-iyun Hijriy 11-yil 12-rabiyu'l avval Dushanba (Choshgoh) payti |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning vafot etgan oyлari | Madinai Munavvara Masjidun Nabaviyning sharqiy devoriga tutashgan hujrai saodat |
| Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning muborak Jasadlarini yuvib kafanlagan zotlar | Abbos ibn Abdulmuttalib, Ali ibn Abu Tolib, Fazl ibi Abbos, Qusayn ibn Abbos, Usoma ibn Zayn, Avs ib va Shuqro (ra.) |

Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v)ning ahli baytlari, ayollari

- 1. Hadija binti Huvaylid**
- 2. Savda binti Zam'a**
- 3. Oisha binti Abu Bakr**
- 4. Hafsa binti Umar**
- 5. Zaynab binti Huzayma**
- 6. Ummu Salama binti Abu Umayya**
- 7. Zaynab binti Jahsh**
- 8. Juvayriya binti Horis**
- 9. Sofiya binti Huyay**
- 10. Ummu Habiba binti Abu Sufyon**
- 11. Maymuna binti Horis Joriyalari**

Joriyalari

- 12. Rayhana (r.a)**
- 13. Moriya Qibtiyya (r.a)**

Farzandlari

| Ismi | Yoshi | Onasi |
|---------------------------------|----------------|--------|
| Qosim | 17-oy | Hadija |
| Zaynab (r.a) | 31 yosh | Hadija |
| Ruqayya (r.a) | 22 yosh | Hadija |
| Ummu Kulsum (r.a) | 28 yosh | Hadija |
| Fotima (r.a) | 29 yosh | Hadija |
| Abdulloh (Tohir, Toyyib) | 1 yoshga yaqin | Hadija |
| Ibrohim | 18 oy | Moriya |

Nabiralari

| | | |
|------|-------|--|
| Ismi | Yoshi | <p>Kiritilgan vaqt: 11/12/2017 00:00; Ko'rilganligi: 37684</p> <p>Material manzili: https://sammuslim.uz/oz/articles/paygamarimiz-muhammad-sav-ning-qisqacha-tarixlari-va-ahli-baytlari-</p> <p>Chop etilgan vaqt: 21/12/2020 23:31</p> |
|------|-------|--|